

PUNKTUATSION BELGILARNING NOODATIY FUNKSIYALARI VA ULARNING BADIY MATNDA OKKOZIONALLASHUVI

*Nurmurotov I.B., Turon universiteti Sharq
tillari kafedrası o'qituvchisi
email: nurmurotovilhom@gmail.com*

Annotatsiya: *ushbu maqolada o'zbek tilida punktuatsion belgilarning qo'llanishiga doir umumiy mantiqiy-grammatik funksiyalarning davr nuqtayi nazaridan o'zgarib turishi, poetik matnda ulardan har bir ijodkorning individual foydalanishi, badiiy matnda boshqa til birliklari singari tinish belgilarining ham muhim ahamiyat kasb etishi, lingvopoetik imkoniyatlari bilan bir qatorda semiotik, kognitiv, kommunikativ-pragmatik, emotsional-ekspressiv, estetik, stilistik aspektlarda o'rganishda ilmiy hamda nazariy jihatdan muhim manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.*

Kalit so'zlar: *tinish belgilari, punktuatsion belgilar, polifunksionallik, lingvopoetika, individual uslub, semiotik aspekt, kognitiv, kommunikativ-pragmatik, emotsional-ekspressiv, estetik, stilistik aspekt.*

Annotation: *in this article, the general logical-grammatical functions of the use of punctuation marks in the Uzbek language change from the point of view of the period, the individual use of them by each creator in the poetic text, the importance of punctuation marks in the artistic text as well as other language units, together with the linguopoetic possibilities It is determined by the fact that it serves as a scientific and theoretically important source for learning in semiotic, cognitive, communicative-pragmatic, emotional-expressive, aesthetic, stylistic aspects.*

Key words: *punctuation marks, polyfunctionality, linguopoetics, individual style, semiotic aspect, cognitive, communicative-pragmatic, emotional-expressive, aesthetic, stylistic aspect.*

Kirish (Introduction). Poetik matnlarning asosiy mezonlari hisoblangan ohang va qofiya she'riy asarlarni bir ritm asosida ijro etish imkonini berdi. Bu jarayonda tinish belgilari ham muhim ritmik vositalardan biri sanaladi. Xususan, ularning ekspressiv sintaktik tuzilmalarini tasniflash uchun tavsiya etilgan til birliklari orasida eng ko'p e'tibor qaratiladigan xususiyat jumlaning me'yoriy qoidalaridan chetlashishi hisoblanadi. "Ushbu jarayonlar aniq me'yoriy tuzilmaning kengayishi, murakkablashishi, implikatsion va me'yoriy tuzilmalarni qisqartirish, inversiya kabi holatlar bilan tavsiflanadi" [1; 2167-2173]. Bugungi tadqiqotlardan ma'lumki, hozirgi kunga qadar badiiy matnlarda tinish belgilari qat'iy standartlashtirilmagan

va ulardan qanday foydalanishni muallif o'z uslubidan kelib chiqqan holda belgilamoqda. Modern adabiyotda tinish belgilarining erkin qo'llanishini Sh.Xolmirzayev quyidagicha izohlaydi: "...yangicha jumla qurilishlarini, mavhumiyatni bordek ko'rsatish uchun shunga muvofiq til lozim. Ammo baribir... ular til yo'rig'ida oqsashlari ustiga, jiddiy ishlamayotirlar ham. Ishonmasangiz – ixtiyor o'zingizda, u moderniy mualliflar ko'pincha tinish belgilarini ham o'z o'rnida ishlatmaydilar... Bu borada realistik yo'ldagi adiblarning yutug'i ko'p. Balki bu borada tilimizga rosa ishlov berilganidadir" [2].

Adabiyotlar tahlili (Literature review). O'zbek tilshunosligida tinish belgilari lingvopoetikasi alohida o'rganilmagan bo'lsa-da, ularning dastlabki me'yoriy vazifalari A.Fitrat, punktuatsion belgilarning tarixiy taraqqiyoti H.G'oziyev, G'.Abdurahmonov, R.A.Alimhammedov, bugungi punktuatsion me'yorlarning shakllanishi borasidagi zamonaviy qarashlar K.Nazarov, H.G'afurov, S.Karimov, N.Mahmudov, B.Baxriddinovaning asarlarida hamda F.T.Karimov, O'.J.Esonov, N.M.Qambarovlarning ilmiy maqolalarida, shuningdek, D.Turayevaning ilmiy ishlarida yoritib berilgan.

Tinish belgilari til birliklari orasida sintaktik-grammatik, ritorik-fiziologik va fonetik-prosodik kabi turli vazifalarni bajaradi. "Zamonaviy she'riyat deb hisoblangan davrning chegaralarini kengaytirish va tilni hatto tasvir, musiqa va so'z interfeyslarida ham mavjud bo'lgan material sifatida tadqiq qilish ommalashdi" [3; 9].

Yuqoridagi tadqiqotlardan ko'rish mumkinki, o'zbek tilida bir necha bor imlo va tinish belgilarini tartibga soluvchi adabiy til me'yorlari qabul qilindi. Qat'iy me'yorlarning mavjudligi ko'plab uslublarda amal qilinsa-da, she'riy matnlarda ijodkorlarga ushbu qoidalardan chetlashish orqali turli ifoda effektiga erishish imkonini berdi. Buning natijasida muallif punktuatsion belgilardan ba'zi o'rinlarda voz kechishi, ba'zi o'rinlarda esa ma'nodoshini tanlash, noodatiylik hamda individuallikni yuzaga chiqarish kabi jarayonlar orqali o'z uslubini shakllantiradi. Badiiy matndagi til birliklarining tasviri uning akustik tomoni kabi muhim parametrga aylanadi hamda prosodik simbolizm kabi grafik shaklning simbolizmi ham o'ziga xos mazmun kasb eta boshlaydi, bu esa, o'z navbatida, tilning qat'iy o'rnatilgan me'yorlariga kiruvchi tinish belgilariga doir qoidalarning mualliflar tomonidan atayin chetlab o'tilganligi bilan bog'liqdir. Ushbu istisnolar mualliflar tomonidan badiiy vosita sifatida e'tirof etiladi hamda badiiy matnga xos emotsional-ekspressivlikka xizmat qiladi. Bu holatni nemis tilshunosi H.Fridrix "dissonant taranglik" deb ataydi va uni zamonaviy poetikaning maqsadi deb biladi. [4; 310]

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Shakliy izlanishlar, albatta, tinish belgilarida ham turli me'yorlarni shakllantira boshlaydi. Davr nuqtayi

nazardan odatiy me'yorlarga, jumladan, qat'iy qoidalarga muvofiq yozilgan poetik matnga taalluqli asarlar hamma ijodkorlarga xos umumiy uslub sifatida o'quvchilar tomonidan bir xil hamda oddiy san'at holida qabul qilingan, shu sababli modernizm estetikasida eski me'yordan, ya'ni qoidalardan chetga chiqishni ma'lum odatga aylantirish yuzaga keladi. She'rda ifoda etilgan punktuatsion belgilar she'rning mazmuni va g'oyasini ochishda, emotsionalligini, ta'sirchanligi ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada tavsiflash, semantik, tarixiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama (Result and Discussions. "Grammatik va mazmuniy vazifa qo'shilib, uchinchi vazifa – tovushdagi badiiy-estetik ohangni ta'minlaydi. Tovushning musiqiyliigi, mazmunning hajmi, tuyg'uning dinamikasi aynan punktuatsiya orqali yaqqol namoyon bo'ladi" [5]. Ma'lum qoidalardan chetlashish zamonaviy poetikani tavsiflasa ham, uning birinchi vazifasi nafaqat ifoda qilish, balki shu ifoda-mazmunni aniq grafik kodlar bilan yashirishdan iborat sanaladi. Berkitilgan ma'noni anglab yetish endi kitobxondan ham mantiqiy tafakkurga oid anchayin "ter to'kish"ni talab etadi. Bu yashirin ma'nolar badiiy matndagi murakkab sintaktik figuralar, noan'anaviy tinish belgilari hamda leksemalardagi polifunksionallik orqali kitobxondan "begonalashtiriladi". Ba'zi o'rinlarda hatto o'quvchiga matnni tushunish uchun deyarli hech qanday ishoraviy vositalar qoldirmaydi:

*beshikdagi go'dak tushida
orom olgan kulcha ilonday
u ayolning ilmiliq ko'zyoshini
to'shab yotar ostiga
agar bir qavat ko'zyosh
botib ketsa etiga uning
bolalarin yoshin ham qo'shib
yetti qavat qilib to'shab oladi (Faxriyor)*

Sh.Xolmirzayev ta'kidlaganidek: "Hurmatli yozuvchilarimizning tinish belgilari borasidagi fikri ham bahstalab. Faqat ruhiy holatlarni ifoda etuvchi adabiyotning mavjudligi rost bo'lsa, bu fikr hatto o'zini oqlamaydi. Chunki ruhiy holat moddiy dunyoda, ya'ni zohirda emas, botinda kechadi va hech kim, o'ta aniq fikrlayotganda ham bu jarayonda tinish belgilarga ehtiyoj sezmaydi" [2]. Tinish belgilarini qo'llamasdan o'z hissiy kechinmalarini kitobxonga yetkazish bugungi kunda noan'anaviylikdan odatga aylanib bormoqda. Ushbu holat boshqa ijodkorlarda ham uchraydi:

TISHGA QASIDA

uyg'ondim tush bitdi manglayimda uzaymish chiziq

na marjon qoyalik na dengiz qizlari na ming yillik kema
ustimda esa yel va parishonlik ifori

Tug'ru'l Tanyol

*Tishlari injuday oppoq pari qor ila nechun o'ynashding sen
yoqangda tovlangan parcha shafaq shu'lasida qaraysan olislarga
bir sim titrog'ida bir yaproq titrog'ida uzasan o'zingga yoqqan mevalarni
siynasi marmar yosuman tabassumi aro chopqillab o'tasan
eshiklarni bekitarlar devlar kirmasin deya
pardalar g'ijimlangan
darbozaga tushgan naqsh
oloviddin (B.Ro'zimuhammad)*

She'riy matnda tinish belgilaridan butunlay voz kechish ma'noning yashirinligi va noaniqligining ekstremal ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Ijodkorning punktuatsion belgilarga xos qoidalardan voz kechishi odatiy kommunikativlikdan uzoqlashishga olib keladi, bu esa badiiy matn tiliga teskari bo'lgan muallifning o'ziga xos poetik murojaatidir. Ushbu holatni S.George quyidagicha izohlaydi: "Me'yoriy tinish belgilarining inkor etilishi uning she'riy muhitidagi estetik kanoniga aylanadi va shoirning nazariy asarlarida asoslanadi" [6; 86].

Dastlabki qarashlarda punktuatsion belgilar boshqa uslublarda qo'llangani kabi badiiy uslubda ham she'riy matnning substansiyasi emas, balki o'quvchiga yordamchi belgilar sifatida talqin etilgan. Modernist shoirlar ijodida bu belgilar o'quvchiga yordamchi vosita bo'lishdan tashqari, tovushning murakkabligi va dissonansi bilan uyg'un ravishda shakily va ma'naviy tomondan individuallik kasb etgan holda tinglovchining e'tiborini o'ziga tortadi:

*Na kelmoq tayini
va na kelmaslik aniqligi.
Bir paytning o'zida kelish-kelmaslik
birligi qiynar seni.
Kuz fol ochar bargrezon bilan,
Daraxt yaproqlarin yuladi bir-bir va
yerga tashlar:*

<i>K</i>	<i>K</i>	<i>K</i>	<i>K</i>
<i>E</i>	<i>e</i>	<i>E</i>	<i>e</i>
<i>L</i>	<i>l</i>	<i>L</i>	<i>l</i>
<i>a</i>	<i>m</i>	<i>a</i>	<i>M</i>
<i>d</i>	<i>a</i>	<i>d</i>	<i>A</i>
<i>i</i>	<i>y</i>	<i>I</i>	<i>Y</i>
<i>.</i>	<i>d</i>	<i>.</i>	<i>D</i>

. i . I

(Faxriyor)

Yuqoridagi misralardan ko‘rinib turibdiki, modernizm she‘riyatida misralarning semantik mazmunida mukammal sintaksis estetikasi ustunlik qiladi, shu sababli ushbu she‘rlarda murakkab va noodatiy sintaktik tuzilmalarga moyillik ustun bo‘ladi.

Ba‘zi o‘rinlarda tinish belgilaridan chetga chiqish ritorik so‘roq gaplarda foydalanishda juda aniq namoyon bo‘ladi. Ritorik so‘roq gaplarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, so‘roq konstruksiyalarida javobni qabul qiluvchi qismining yo‘qligidir, ya‘ni savollar ma‘lum bir qabul qiluvchiga qaratilgan emas. Ularning kengaytirilgan sintaktik tarkibida javob mavjud, shuning uchun ko‘pincha ritorik gaplar so‘ngiga so‘roq belgisi ishlatilmaydi:

Olamni suv bossa

qo‘zg‘almasam men

ta‘na toshlarini otmang boshimga

toki o‘ylab olay

qanday olam bu

qimirlashga arzirmi suv ham? (B.Ro‘zimhammad)

*Tasavvur qilaylikki, qiyomatda kimdir umid bilan jannat sari boradi, ammo unga jannatning hech bir eshigi ochilmaydi va hukm aytilarki: “do‘zaxga kir!” deb. **Qanday sharmandalik! Qanday fojia bu!*** (T.Malik)

Yuqoridagi gaplarda so‘roq belgisining yo‘qligi jumalardagi so‘roq intonatsiyasini pasaytiradi. Natijada so‘roq gapning ifoda va maqsadida ma‘lum o‘zgarishlar yuz beradi hamda jumalarning bunday qurilishi tufayli badiiy matnning o‘qishliligi yanada ortadi. Birinchi poetik namunada ajratib ko‘rsatilgan misra ritorik so‘roq bilan tugaydi, ammo ijodkorning falsafiy qiyofasi tinish belgilarsiz, faqat intonatsiya yordamida ta‘kidlanadi. Tinish belgilarsiz qo‘llangan har bir misrada ohangning zaiflashishi va misra ritmining sekinlashib borishini, oxirgi ikki misrada esa bu o‘rinlarni so‘roq ta‘kidi egallaganini ko‘rish mumkin. Badiiy matnlardagi ritorik so‘roq aks etgan gaplar so‘roq belgisining qo‘llanish yoki qo‘llanmasligidan qat‘i nazar javob talab qilmaydi. Bu singari qurilmalar voqealarni bilish va aks ettirishning tarkibi bo‘lganligi hamda muallif kechinmalariga xos ichki qarama-qarshilikka asoslanganligi sababli hayajonli va ifodali eshitiladi. Ijodkor o‘z ichki olamiga ritorik so‘roq gap orqali murojaat qiladi va undan javob olishga intiladi.

Undovlarning qo'llanilishida ham so'roqqa xos poetik funksiyalarni uchratish mumkin. Ular odatda emotsional-ekspressivlikni oshirish va shunga hamohang tarzda musiqiy ohangning tezlashishi bilan birlashadi:

Shu ondayoq yoningdagilardan loaqaq bir qadam, loaqaq bir qarich, loaqaq bir baxya ilgarilash, o'zish epini topishga majbursan, majbur!

– Olg'a!!

"jigaridan urishi" shu bo'lsa kerak-da?!

– *Chalg'imang! Chalg'imang! Tezlashing!* (X.Do'stmuhammad)

Ba'zi o'rinlarda undovlarga xos konstruksiyalarning undov belgisi bilan emas, balki ko'p nuqta, nuqta, vergul bilan ifodalanishini ham ko'rish mumkin:

Tishlarimning o'rtasida,

Ikki qilich o'rtasida,

Chavaqlanar qahqaha –

Ha! Ha! Ha! H... (E.Shukur)

Yig'lay boshladi:

– *Sen xo'jayinning dushmanisan, sen davlatga qarshi,*

– *Sen... sen... sen...*

Xo'jayin mendan xafa bo'ladi,

Endi nima yeyman? (A.Qutbiddin)

Harna yomg'ir yog'ar, yuvar aybimiz,

Kechib kechirmaydi g'animat dayr.

Yomg'irpo'shni ochding, ojiz qaysimiz,

Xayr, Xayr, Xayr... (A.Qutbiddin)

Yuqoridagi poetik matnlarda semantik strukturasi bir-biriga juda yaqin bo'lgan til birliklarining bitta tinish belgisi bilan emas, balki sinonim sifatida turli tinish belgilariga murojaat qilinganligini ko'rish mumkin. Ushbu jarayon jummalarga undovlarga xos emotsionallikdan farqli o'laroq mulohaza yuritish, tafakkur, shuningdek, sanash ohangi, cheksiz his-hayajon kabi ma'nolarni yuklaydi. Bunday noodatiy punktuatsion qo'llanishlar misralardagi bir xillikni to'xtatib, diqqatni tasvirga qaratishga yordam beradi. Undovlar ham ritorik so'roq gaplar singari ma'lum bir adresatga e'tibor qaratishni anglatmaydi, balki ular shoirning qalbiga chuqur yo'naltirilgan hisoblanadi.

Soylarning bo'ylarida

Yig'lab uchar ovozung,

Go'ristonga qo'riqchi –

O'qilmagan janozung.

Boy, Mengim-a, sho'r Mengim:

Uvv!.. Uvv!!! (E.Shukur)

Misralardan ko‘rinib turibdiki, undov belgisi qo‘llanmagan jumladagi ritmning sekinlashganligi hamda bir xil ohang ustuvorligi davom etadi, ammo so‘nggi misrada ushbu ohang undov so‘z, tovushlar hamda undov belgilarining tadrijiy takrori bilan o‘z emotsiyasining kulminatsiyasiga erishadi.

Olomon xuddi osmondan odamlarning esini og‘dirib qo‘yadigan sas yopirilib kelayotgandek, talvasaga tushdi.

– Zardusht bobo...

– Zardusht...

– Bobo...

– Zardusht bobo!!! – *deb yubordi olomon bir ovozdan iltijo qilib izdihom ko‘chkidek surilib, bobo tomon siljidi.* (X.Do‘stmuhammad)

Yuqoridagi kabi tinish belgilarining poetik vazifa bajarish uchun darajalanishi B.Baxriddinova tadqiqotlarida ham keltirib o‘tilgan. Quyidagi she‘rda ko‘p nuqta va undov belgisi badiiy matnning badiiy qimmatini oshirish bilan birga undan anglashilayotgan mazmunning yanada bo‘rttirilishiga xizmat qilayotganini kuzatish mumkin:

Osmon baravar plan berdilar.

– Bajarasan! – dedilar.

– Bajarolmayman, – dedi.

– Bajarasan!! – dedilar.

– Bajarmayman!! – dedi.

– Qamalasan!!! – dedilar.

Bajardi... Bola-chaqasi ko‘p edi...

Orden berdilar... Planni oshirib bajargani uchun...

Keyin... qamadilar... Qo‘shib yozgani uchun... Bola-chaqasi ko‘p edi...

(O‘.Hoshimov)

“Ko‘rinib turibdiki, undov belgisi sonining ortib borishi matnda u birga qo‘llangan so‘z tashiydigan ma‘noning kuchayib borishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa (*Bajarasan! Bajarasan!! Qamalasan!!!*), ko‘p nuqta ilojsizlik (*Bajardi...*), aytilmagan sabab (*Bola-chaqasi ko‘p edi...*), oqibat (*Keyin... qamadilar... Qo‘shib yozgani uchun...*), afsus (*Bola-chaqasi ko‘p edi...*) kabi qo‘shimcha emotsional-ekspressiv bo‘yoq berib ta‘sirchanlikni oshirish uchun xizmat qilish bilan birga yozuvchiga jummalarni ixcham bayon etish imkonini bermoqda” [7; 6]

Muallif tinish belgilarining badiiy matndagi bunday erkinligi ularning ifoda maqsadida turli mavhumliklarni yuzaga keltiradi. Ma‘lumki, badiiy matnning tili ko‘p ma‘noli bo‘lib, bu ko‘p ma‘nolilik butunlay o‘zigacha tarzda namoyon bo‘ladi. Biz ularni biryoqlama idrok etishga, unda faqat bir ma‘noli fikrlarni ko‘rishga harakat qilsak, ijodkorning asl ichki olamini idrok etolmaymiz. Xususan, she‘rning

noaniqligi uning yaxlitligidan, ko'p ohangligi esa uyg'unligidan kelib chiqadi. Ijodkor yetkazmoqchi bo'lgan individual qarashlar o'zi uchun aytilgan, ammo buni anglay olmagan kitobxon uchun har doim aytilmagan bo'lib qoladi. Ushbu jarayon, albatta, punktuatsion belgilar yordamida "kodlashtiriladi".

Ritorik gaplarda qo'llangan g'ayrioddiy tinish belgilari jumlaning talqinini murakkablashtiradi, ijodkor hissiy kechinmalar ortida yashiringan o'z so'zlarini ko'p nuqtalar orqali aytmay qoldiradi:

Butun xalq yo'qotgan eng go'zal ertak –

Qani, sening ovozing?..

Muztog'lar ichida qolgan bir kema. –

Qani, sening ovozing?! (Eshqobil Shukur)

O'ynar, o'ynar, o'ynar kapalak.

Bir lahzaning farmoni qoldi

Xayrlashdik. Beso'z. Beyurak.

Buyuk sevgi armoni qoldi...

Buyuk go'zal rangin kapalak... (R.Parfi)

Ma'lumki, poetik matnning qismlari grammatik va semantik tuzilishi jihatidan bir xil bo'lgan nutq birliklarining tuzilmasi bo'lib, badiiy matnning umumiy obrazini yaratishga xizmat qiladi. Ritmik parallelizm elementlari tarkibiga jumlar, ularning qismlari, iboralar, so'zlar, shuningdek, punktuatsion belgilarni keltirish mumkin. Ushbu ritmik-sintaktik parallelizm she'riyatning estetik ta'sir mexanizmi hisoblanib, musiqiy ohangni yuzaga keltiradi. Bugungi davr she'riyatining uslubi hisoblangan intuitivlik endi uning badiiy asosi sifatida xizmat qiladi.

Etagi kuygan izg'irin...

Qor bo'roni...

O'yin tushayotgan ayol...

Charx urib... Charx urib...

Charx urib... (A.Qutbiddin)

Muallif punktuatsiyasi umumiy me'yoriy qoidalar bilan qarama-qarshi qo'yilib, keng o'quvchilar ommasi uchun o'qish va tushunishni qiyinlashtiradi va bu holat ijodkorni ommadan begonalashtiradi. Noodatiy sintaktik tuzilmalar hamda tinish belgilari qanchalik o'zgacha hisoblansa, muallifning uslubi va poetik matn ham shunchalik noaniq sanaladi. "Modernizm davri she'riyati o'ziga xos estetik kategoriya hisoblanib, faqat shoirlargina anglay oladigan san'at sifatida ajralib turishga intilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu maqsadga erishish uchun mualliflar lingvistik vositalarning barcha mavjud tarmoqlaridan foydalanadilar. Natijada muallif tinish belgilari ham ular qatori shoir individual uslubini yaratishning kuchli vositalaridan biriga aylanadi" [8]

Zamonaviy o'zbek adabiyotiga xos turli shakliy va ma'naviy izlanishlar bugungi davr muhiti bilan qiyoslansa-da, ularning ildizlari XX asr boshlarida ham uchrab turadi. Xususan, Cho'lpon ijodiga xos she'r namunalarida punktuatsion belgilarning noodatiyligini uchratish mumkin:

Hich milletda kad inlarin o go'zel

Chehreleri perdelere girmiyor.

Hich milletde xa'in yel

Kadinlara g'azab ila ermiyor. (Cho'lpon)

Ben ishte sevgili umudler ... ve song ten effusle

Nefes alir ve gine rahi ma girer, giderim,

Bu yo'lda janum, hich shubhasiz, feda ederem... (Cho'lpon)

Zamonaviy nasriy asarlar tadqiqida ham noan'anaviy qo'llangan punktuatsion belgilarni ko'plab uchratish mumkin. Bu holat ham tinish belgilaridan erkin foydalanishning o'ziga xos uslubiy ko'rinishidir, ammo adabiy til uslublarining taraqqiy etishi, nashriyot, matbaachilikning rivojlanishi, nutqni ixchamlashtirish, ta'sirchanlikni oshirish uchun xizmat qiluvchi ayrim tinish belgilari funksiyasining ortishi, badiiy adabiyot va publitsistikada turli qoliplarga daxlsiz erkin ijodga keng yo'l ochilishi ham sohada muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi [7; 56]

- Qayerdasiz, bayke?!!..., - deya yana qichqirdi.

- Bu yerda! Hozir o'lib qolaman, qutqaringlar! - degan yana bo'g'iq ovoz keldi.

Nurmat aka "rahmat" dedi-yu yuragi "shuvv" etib ketdi va mashinalari tomon beixtiyor kelarkan: "Nima?! Jirg'atol?!... Normurodni "boyevik" deydimi?" - dedi u o'z-o'ziga gapirib, "E xudo, ishqilib yolg'on bo'lsin-da...". -

Xo'sh, kelmasa-chi? O'sha Omonzodani yuborishingizni bilganimda edi, undan ko'ra mening o'zim borib qo'ya qolardim, aka!... Yo undan ko'ra o'ziyiz bormaysizmi! Bir million dollarlik tovarga-ya?! - dedi u betoqat u yoq-bu yoqqa yurib. (N.Hoshimov)

Tinish belgilaridan bu tarzda erkin foydalanishni odat qilib olish individuallikdan ko'ra ko'plab xatoliklarni keltirib chiqaradi. Xususan, badiiy matnning o'zga xos obrazlilik butun til unsurlari bilan kitobxon xayolotining bir qismiga aylanadi. Natijada ushbu "ko'chib o'tish" jarayonida punktuatsion belgilar ham obrazlilik yaratishning vositasi sifatida kitobxon dunyoqarashida ma'lum o'rin tuta boshlaydi.

Yuqoridagi namunalarda qo'llangan so'roq+undov+undov+ko'p nuqta+vergul+tirening me'yordan ortiq takrorlanishi, shuningdek, ushbu holatdagi vergulning noto'g'ri qo'llanishi noan'anaviylikdan ko'ra xatoliklarni keltirib chiqaradi.

– *Qani, ko‘ramiz hali. Sening mashinang shunday ishlab tursa, hademay Ibrohim Hindistonda bo‘ladi yoki Hinduquushga uchib boradi. Demak, uni burgut ko‘tarib ketayotgan bo‘ladi, shunaqami?*

– ...?!

– *Mashinangni u yoq-bu yog‘ini ko‘rib ol yoki bo‘lmasa, oyog‘ini osmondan qilib ag‘darib qo‘y. (N.Hoshimov)*

– *Axir, qanaqa qilib..?*

– *Yo‘qotishmi? Undan osoni yo‘q. Tog‘da nima ko‘p – tosh ko‘chki, qor ko‘chkisi ko‘p. Buni bir palakat, baxtsiz hodisa deydilar. (N.Hoshimov)*

– *Pora, – dedi ota quruq qilib.*

– ...?!

– *Ha, buni anuvilar berishdi. (N.Hoshimov)*

Yigit juda xursand edi. “Nahotki orzularimga yetishayotgan bo‘lsam. Hech ishongim kelmaydi. Demak, endi men mamlakat uchun, jamiyat uchun kerak ekanman. Menga ishonishibdi. Endi davlatimizga sidqidildan xizmat qilaman. Yangi-yangi do‘stlar orttiraman, topshiriqlar olaman. Kim edim-u, kim bo‘ldim?...” (N.Hoshimov)

Yuqoridagi namunalarda qo‘llangan punktuatsion konstruksiyalarda ko‘p nuqtaning so‘roq hamda undov belgilaridan oldin qo‘llanishi hamda ba‘zi o‘rinlarda ikki nuqta, ba‘zi o‘rinlarda uchta nuqta shaklida berilishi har qanday punktuatsion me‘yorlarga zid hisoblanadi. Bundan tashqari, so‘roq+qo‘shirnoq+ko‘p nuqtaning kombinatsiyasida tartibning buzilganligini ko‘rish mumkin.

Xususan, til millatniki. Me‘yorni davlat belgilaydi. Shunday ekan, tildan turli maqsadlarda foydalanayotganda, iste‘molchi nafaqat og‘zaki nutqda, balki yozma nutqda ham mavjud adabiy me‘yorlar – imloviy, punktuatsion, stilistik me‘yorlarga to‘la amal qilishga majbur. Negaki til – millat qiyofasini ko‘rsatadigan ko‘zgu. Tinish belgilarini noo‘rin qo‘llash nafaqat gap mazmuni, maqsadi, grammatik qurilishining buzilishiga olib keladi, balki milliy madaniyatning bir qismi bo‘lgan yozuvga ham dog‘ tushiradi. [7; 62]

PunktuatSION me‘yorlardan ma‘lumki, kiritmalar, asosan, qavs tinish belgisi bilan ajratiladi. Ba‘zan bu vazifani so‘roq hamda undov belgilari bajaradi. Modernizm adabiyoti namunalari bu holat hatto tovushlarga yuklatilganligini ko‘rish mumkin:

Men baxtli(k)man, peshonam sho‘r, o!

Parvardigor, o‘zing kechirgil

Men osiyni.

Mening yolg‘iz gunohim: vergul! (Faxriyor)

Yuqoridagi misralarning dastlabki qatorida kiritma sifatida ko'rsatilgan vositani qavsdan chiqargan holda o'qish yoki o'qimasdan qoldirish ikki xil mazmuni o'rinlashtiradi. Birinchi holatda "baxtliman" so'zi sifat turkumini anglatgan bo'lsa, ikkinchi holatda abstrakt ot vazifasini bajargan. So'nggi misrada qo'llangan tinish belgilari hamda "vergul" so'zi ijodkorning o'ziga xos falsafiy qarashlarini anglatib kelmoqda. Vergulning shakliy hamda me'yoriy o'rinlaridan ma'lumki, jumla boshi hamda jumla oxirida ushbu tinish belgisi qo'llanmaydi, shuningdek, ko'plab me'yoriy vazifalari ijodkor aytmoqchi bo'lgan maqsadga ishora qiladi.

Darak gap – Inson.

Undov gap – Inson!

So'roq gap – Inson?

Yashamakni o'rgatar so'zlar. (R.Parfi)

Ushbu misralarning shakliy tuzilishi ham, mazmuniy tomoni ham individual qarashlarga xizmat qilmoqda. Xususan, shoir aks ettirmoqchi bo'lgan barcha tasvirlar uning "men"ini ifodalashga xizmat qiladi. Gapning ifoda maqsadlari hamda ularga hamohang qo'llangan tinish belgilari insonning mukammal mavjudot ekanligiga ishora qilmoqda.

Dunyo tilshunosligida punktuatsion belgilarning yangi me'yoriy funksiyalari vujudga kelishidan tashqari ularning konstruksiyalarida ham yangi ko'rinishlar hosil bo'lmoqda:

You won the lottery?!?! (Lotereya yutib oldingiz?!?!)

My mom screamed, "Go to your room this instant!!" (Onam baqirib yubordi: "Hozir xonangga bor!")

I can't believe I failed my test again!!! (Men yana sinovdan o'ta olmaganimga ishonmayman!!!)

Jack, we won the lottery!!!! (Jek, biz lotereyani yutib oldik!!!!)

What did you say to him?? (Unga nima dedingiz?)

You won the lottery??? (Lotereya yutib oldingizmi???) [9; 34]

Bugungi davr jahon tilshunosligida hatto yangi ko'rinishdagi tinish belgilarini ham uchratish mumkin. Undov va so'roq belgisining ushbu kombinatsiyasi "interrobang" (?) deb nomlanadi. Ushbu belgini 1962-yilda amerikalik reklama direktori K.Martin ritorik so'roqlar yoki ishonchsizlik ohangida berilgan so'roqlarni belgilash uchun so'roq hamda undov belgisining kombinatsiyasidan iborat "interrobang"ni (?) taklif qildi. Yangi tinish belgisi 1960-yillarda keng muhokama qilingan bo'lsa-da, uning qo'llanilishiga erisha olmadi. Quyidagi ikkita jumlada ushbu belgining qo'llanishini ko'rishimiz mumkin:

What did you say to him? (Unga nima dedingiz?)

You won the lottery? (Siz lotereyani yutib oldingiz?)

Bu holat ham rasman tan olingan tinish belgisi emas, shuning uchun undan foydalanish adabiy me'yordagi yozishmalarda tavsiya etilmagan.

Bundan tashqari, 1966-yilda fransuz tilshunosi Erve Bazin yana oltita qo'shimcha tinish belgilari va "emoji"larni kiritishni taklif qiladi. Ular quyidagilar:

☹ – kamsitish, salbiy yoki kulgili xarakter belgisi, ☺ – sevgini ifodalovchi belgi; † – ishonch belgisi; ‡ – buyruq belgisi; ♯ – olqish belgisi; ? – shubha belgisi.

1992-yilda Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) xalqaro patentga yana ikkita yangi tinish belgilari kiritish talabnomasini topshiradi. Ular so'roq vergul hamda undov vergul. Xususan, so'roq vergulida so'roq belgisining pastki qismidagi nuqta o'rniga vergul qo'yiladi ('), undovda esa undov belgisining pastki qismidagi nuqta o'rniga vergul (') qo'yiladi. Bular gap ichida savol va undov belgilari sifatida foydalanishga mo'ljallangan. Bu vazifa uchun oddiy so'roq hamda undov belgilari ham ishlatilishi mumkin. Ushbu belgi 1994-yil 27-yanvarda Avstraliyada va 1995-yil 6-noyabrda Kanadada o'z kuchini yo'qotgan deb e'lon qilingan. [10]

Xulosa. Amaliyot jarayonida me'yor tushunchasining ehtiyojlardan kelib chiqqan holda ma'lum uzuslar hisobiga o'zgarib turishi, bu jarayonni barcha til birliklari singari punktuatsiyaga doir me'yorlarning ma'lum odatlar hisobiga yangi funksiyalarni o'zida mujassamlashtirganligida ko'rish mumkin. Tinish belgilari gapning sintaktik qurilishi, intonatsiyasiga ta'sir qiladi, shuningdek, ifoda maqsadi hamda ma'noviy strukturasi ma'lum emotsional-ekspressivlik va funksional o'ziga xoslik yuklaydi. Badiiy matndagi shakliy izlanishlar tinish belgilarida ham turli lingvopoetik funksiyalarni shakllantirgan. Bunga sabab vaqt o'tishi bilan an'anaviy me'yorlarga, ya'ni poetik matnlarda uchraydigan qat'iy qoidalardan chetga chiqmay yozilgan asarlar hamma ijodkorlarga xos umumiy uslub sifatida oq'uvchilar tomonidan bir xil va oddiy qabul qilingan, shu bois modernizm estetikasida ijodkorlar an'anaviy qoidalardan, me'yorlardan ajralib turishni ma'lum odatga aylantirishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Воробьева Е. Н. Экспрессивный синтаксис английского языка: систематический обзор. Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2022. Том 15. Выпуск 7. – С. 2167-2173.

2. Холмирзаев Ш. Кечирасиз жаноб Карпентер, вақтим зиқроқ / Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. 2000-й, 27-июль. – № 31.

3. Stuckatz K. “Ein Beitrag zur modernen Weltichtung” Ernst Jandl und die internationale Avant-Garde. Doctor of Philosophy. – German: The Pennsylvania State University, 2014. – B. 9.
4. Friedrich H. Die Struktur der modernen Lyrik: von der Mitte des neunzehnten bis zur Mitte des zwanzigsten Jahrhunderts. – Reinbek bei Hamburg: Rowohlt, 2006. – P. 310.
5. Yoʻlchiyev Q. Ignabarg sheʼr va tinish belgilari. 2021. 21-fevral. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/ignabarg-sheer-va-tinish-belgilari/>
6. George S. Gedichte. Eine Auswahl / hrsg. Von R. Boehringer. – Ditzingen: Philipp Reclam, 1993. – P. 86.
7. Baxriddinova B. Zamonaviy oʻzbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – B. 6.
8. Гончарова М.В. Когнитивная функция авторской пунктуации в поэтическом тексте эпохи модернизма // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2016. – № 5(59). – С. 91.;
9. The Farlex Grammar Book: Volume II Complete English Punctuation Rules. – Copyright: by Farlex International, 10. <https://en.wikipedia.org/wiki/Punctuation>